

YUSUPOVA Kamola

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti magistrantiXITOIY XALQ RESPUBLIKASINING
TASHQI SIYOSATI: TARIXIY
TARAQQIYOT, ISLOHOTLAR
VA GLOBAL YETAKCHILIK
STRATEGIYASIВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА
КИТАЙСКОЙ НАРОДНОЙ
РЕСПУБЛИКИ: ИСТОРИЧЕСКОЕ
РАЗВИТИЕ, РЕФОРМЫ И
СТРАТЕГИЯ ГЛОБАЛЬНОГО
ЛИДЕРСТВАTHE FOREIGN POLICY OF THE
PEOPLE'S REPUBLIC OF CHINA:
HISTORICAL DEVELOPMENT,
REFORMS, AND GLOBAL
LEADERSHIP STRATEGY

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xitoy Xalq Respublikasining (XXR) 1949-yildan hozirgi kungacha bo'lgan tashqi siyosati, har bir davlat rahbari davridagi strategik yo'nalishlar va islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, 21-asrda Xitoyning global yetakchilik sari intilishi, "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi, BRIKSdagi o'rni va manfaatlari ilmiy-nazariy asosda yoritilgan. Maqolada tarixiy, geosiyosiy va iqtisodiy tahlillarga asoslanilgan holda XXRning jahon siyosatidagi o'rni baholangan.

Kalit so'zlar. Tashqi siyosat, "uchinchi dunyo" yetakchisi, "ko'p qutbli dunyo" g'oyasi, "Xitoy orzusi", "Bir kamar – bir yo'l" loyihasi, BRIKS.

Аннотация. В данной статье анализируется внешняя политика Китайской Народной Республики (КНР) с 1949 года до настоящего времени, включая стратегические направления и реформы в различные периоды правления государственных лидеров. Особое внимание уделено стремлению Китая к глобальному лидерству в XXI веке, инициативе "Один пояс — один путь", а также роли и интересам КНР в рамках БРИКС. Научно-теоретически обосновано место Китая в мировой политике на основе исторического, геополитического и экономического анализа.

Ключевые слова: Внешняя политика, лидер "третьего мира", идея "многополярного мира",

"Китайская мечта", проект "Один пояс – один путь", БРИКС.

Abstract. This article analyzes the foreign policy of the People's Republic of China (PRC) from 1949 to the present, focusing on the strategic directions and reforms under each national leader. Particular attention is given to China's pursuit of global leadership in the 21st century, the "Belt and Road" Initiative, and the country's role and interests within BRIKS. The article evaluates China's position in global politics through a historically, geopolitically, and economically grounded analysis.

Keywords: Foreign policy, leader of the "Third World", concept of a "multipolar world", "Chinese Dream", "Belt and Road" Initiative, BRIKS.

KIRISH

XXI asr global siyosiy manzarasi ko'p qutbli tizim sari harakatlanar ekan, xalqaro munosabatlarda Xitoy Xalq Respublikasi eng muhim geosiyosiy o'yinchilardan biriga aylanishi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Tarixiy jihatdan izchil ichki rivojlanishga urg'u bergan Xitoy, so'nggi o'n yilliklarda tashqi siyosat yo'nalishini tubdan qayta ko'rib chiqdi. Avvalroq asosan "himoyaviy-realistik" (defensive realism) model asosida harakat qilgan Pekin endilikda "hujumkor-institutsionalist" (offensive institutionalism) model sari og'moqda.

Bu o'zgarishlar Xitoyning xalqaro institutlardagi ishtiroki, geoiqtisodiy strategiyalari, texnologik mustaqillik sari intilishi va normativ yondashuvi orqali yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, AQSh yetakchiligidagi g'arbiy liberal tartib bilan raqobatlashayotgan Xitoy modeli — global siyosiy tuzumda muqobil tamoyillar va strukturalarning shakllanishiga sabab bo'layotganini inkor etib bo'lmaydi.

Mazkur maqolada Xitoy tashqi siyosatining XXI asrdagi transformatsiyasi, uning konseptual asosi, strategik yo'nalishlari va xalqaro tartibdagi o'rniga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Xitoyning global institutlardagi roli, geoiqtisodiy siyosati, texnologik rivojlanish strategiyalari hamda normativ paradigmasi asosida uning g'arbiy dominatsiyadagi xalqaro tartibga bo'lgan munosabati ochib beriladi.

ASOSIY QISM

1949-yilda Mao Szedun boshchiligidagi tashkil topgan Xitoy Xalq Respublikasi o'sha davrda

rivojlanayotgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan qoloq mamlakat sifatida xalqaro maydonga chiqqan edi. Oradan yetmish yildan oshiq vaqt o'tib, XXR bugungi kunda dunyodagi eng yirik ikkinchi iqtisodiyotga, harbiy va texnologik qudratga ega davlatga aylangan. Bu o'zgarishlar mamlakat tashqi siyosatining evolyutsiyasi, ichki islohotlar va xalqaro tizimdagi strategik yo'nalishlar bilan chambarchas bog'liqdir[11:65].

Mao Szedun (1949-1976) davrida XXR tashqi siyosati ideologik asosda shakllangan bo'lib, sovetparastlik va antiimperialistik qarashlar hukm surgan. 1950-1953-yillardagi Koreya urushida Xitoy Shimoliy Koreya tarafida ishtirok etib, AQSh boshchiligidagi kuchlar bilan to'qnash kelgan. Bu davrda Xitoy o'zini "uchinchi dunyo" yetakchisi sifatida ko'rsatishga harakat qildi. Shuningdek, 1960-yillarda Xitoy-Sovet munosabatlarining yomonlashuvi tashqi siyosatni mustaqillikka yo'naltirdi. 1971-yilda Xitoy Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lib, Tayvanning o'rnini egalladi. Bu esa xalqaro maydondagi nufuzini oshirdi[12:120].

Den Syaopin (1978-1992) davrida Xitoy tashqi siyosatda pragmatizmga yo'naltirildi. "Ochiqlik va islohotlar" siyosati (改革开放) orqali mamlakat xorijiy investitsiyalar uchun ochildi. AQSh va Yevropa davlatlari bilan keng ko'lamli iqtisodiy aloqalar yo'lga qo'yildi. Den Syaopinning eng muhim tashabbuslaridan biri "To'rt modernizatsiya" siyosati bo'lib, bu orqali qishloq xo'jaligi, sanoat, mudofaa va ilm-fan rivojlantirildi. Xitoyda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi, ulardan eng mashhuri – Shenzhen bo'lib, bugungi kunda global texnologik markazga aylangan[13:75].

Szyan Szemin (1993–2002) davrida Xitoy xalqaro tizimga integratsiyalashishga e'tibor qaratdi. Bu davrning muhim voqeasi 2001-yilda Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik bo'ldi. Bu bilan Xitoy global savdo tizimiga rasman qo'shildi. Shuningdek, bu davrda "ko'p qutbli dunyo" g'oyasi ilgari surildi. Xitoy G'arb bilan teng asosda hamkorlik qilishga intila boshladi. Ayni paytda Xitoy ichki iqtisodiy islohotlarni davom ettirdi, xususiyl sektorini kengaytirdi.

Xu Szintao (2002-2012) davrida tashqi siyosat "tinch rivojlanish" (和平发展) g'oyasiga asoslandi. Xitoy o'zining qudratini yumshoq kuch orqali namoyon etishga harakat qildi.

Afrika, Lotin Amerikasi va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan savdo, infratuzilma va sarmoya aloqalari kuchaytirildi. Xu Szintao davrida Xitoy "mas'uliyatli kuch" sifatida xalqaro miqyosda tan olina boshladi. Shuningdek, ichki siyosatda ijtimoiy barqarorlikka va iqtisodiy muvozanatga urg'u berildi. Xu Szintao davri Xitoy eng iqtisodiy yuksalish davriga to'g'ri kelgan. Xitoy 2011-yilda dunyoning birinchi iqtisodiyotiga aylangan, ya'ni o'sha yillar yalpi ichki mahsuloti bo'yicha eng yuqori darajaga chiqqan[2:175].

Si Szinpin (2012-hozirgacha) boshchiligidagi XXR tashqi siyosatda yanada faol va tajovuzkor strategiyani tanladi. Zamonaviy davrda Si Szinpinning tashqi siyosiy qarashlari mao Szedun va Den Syaopinning o'rtasi, ya'ni u Den Syaopin, Szyan Szemin va Xu Szintaoga qaraganda konservativ davlat rahbari hisoblanadi va buy uning qarorlari, amalga oshirayotgan loyihalarida ham aks etadi. Si Szinpingacha bo'lgan davlat rahbarlari Xitoyning iqtisodiy rivojlanishiga, davlatlar bilan hamkorlikka asosiy e'tibormni qaratishgan bo'lsa, Si Szinpinda Xitoyni global davlatga aylantirish g'oyasi yetakchilik qiladi. U hamkorlik qiladigan davlatlar ham asosan, avtoritar va konservativ davlatlar, undan oldingi pragmatik davrda G'arb bilan ya'ni liberal davlatlar bilan aloqalar yaxshi rivojlangan edi. U tomonidan ilgari surilgan "Xitoy orzusi" (中国梦) g'oyasi mamlakatni 2049-yilgacha global superdavlatga aylantirishni nazarda tutadi.

Uning global loyihalaridan biri 2013-yilda e'lon qilingan "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi (BRI) bo'lib, u Xitoy tashqi siyosati tarixidagi eng yirik tashabbuslaridan biridir. Bu loyiha Osiyo, Afrika va Yevropani bog'lovchi savdo va infratuzilma tarmog'ini yaratishga qaratilgan bo'lib, 150 dan ortiq davlatni qamrab oladi. Loyihaning asosiy maqsadi butun dunyoda – quruqlikda va dengiz yo'llarida Xitoyning iqtisodiy ta'sirini oshirish. Ikkinchisi, quruqlik orqali Yevropaga Rossiyasiz boradigan yo'lni joriy qilish. Uchinchi xususiyati rivojlanayotgan davlatlarni iqtisodiy jihatdan Xitoyga qarab qilish.

Raqamli texnologiyalar sohasida ham Xitoy allaqachon oldinlab ketishga ulgurgan. Hukumat bu sohaga kata e'tibor qaratadi, subsidiyalar orqali sohani rivojlantiradi. Xitoy 5G, sun'iy intellekt, kvant kompyuterlari kabi zamonaviy texnologiyalarga yirik sarmoya kiritmoqda.

Huawei, Tencent, Alibaba kabi kompaniyalar xalqaro bozorlarda faol ishlamoqda.

Si Szipin davrida Xitoy harbiy qudratini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, Janubiy Xitoy dengizi va Tayvan masalasi global e'tibor markazida turibdi. Xitoy fazoviy texnologiyalar sohasida ham katta yutuqlarga erishmoqda[1:35].

XXI asrda Xitoy tashqi siyosatida BRIKS muloqot guruhi juda muhim ahamiyatga ega. BRIKS Global Janub ya'ni rivojlanayotgan davlatlarni o'z ichiga olgan muloqot platformasi bo'lib, bu davlatlar G7 ga alternative tarzda o'zaro hamkorlik qilishadi.

- **Uning paydo bo'lishi** – 2017yil Xitoy raisligidagi Xiamen sammitida Pekin “BRIKS Plus” g'oyasini ilgari surib, BRIKS yetakchilari bilan birga Misr, Meksika, Gvineya, Tojikiston va Tailand rahbarlarini alohida *Dialogue of Emerging Markets and Developing Countries* sessiyasiga taklif qildi. Shu vaqtdan boshlab BRIKS sammitlarida doimiy muloqot formati (“Outreach”, “BRIKS +”) mustahkamlandi.

- **Formatning maqsadi** – g'arb yetakchiligidagi G7 va boshqa institutlardan muqobil global maydon yaratish, Global Janub davlatlarini (Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi) infratuzilma, moliya va siyosiy kun tartibi bo'yicha BRIKS atrofida jamlashdir. 2024yil Kazan sammitida qatnashchilar soni kengayib, “hamkor mamlakatlar” degan yangi, to'liq a'zolikdan pastroq, ammo *Outreach* dan yuqoriroq o'rta pog'ona ham joriy etildi. **Muloqot yo'nalishlari** – davlat rahbarlari sammitidan tashqari, *BRIKS Political Parties Plus Dialogue*, Biznes forumi, Thinktanklar kengashi, ayollar biznes alyansi singari tematik guruhlar shakllangan.

Xitoyning roli va manfaatlari

Yo'nalish	Xitoyning tashabbusi / hissasi	Kutilayotgan natija
Kengaytirish	“BRIKS Plus” konsepsiyasi muallifi; 2023 yil Yoxannesburgda va 2024 yil Kazanda yangi a'zolari faol qo'llabquvvatladi	Pekin atrofidagi Global Janub blokini kattalashtirish

Moliyaviy arxitektura	NDB (Yangi Taraqqiyot Banki) bosh idorasi Shanxayda; Xitoy CRA (\$100 mlrd zaxira havzasi) kapitalida 41 % ulushni moliyalashtirgan	Xalqaro moliya tizimida yuan rolini kengaytirish, dollar ta'sirini kamaytirish
Savdoiqlim	2023 yilda Xitoyning BRIKS doirasidagi savdosi 2.38 trln yuanga (+19 %) yetdi; BRIKS bilan umumiy savdo \$1 trln chegarasiga yaqinlashdi	Eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish, BRI (Bir kamarbir yo'l) loyihalarini sinxronlashtirish
Normativ ta'sir	“Xavfsizlik bo'yicha global tashabbus”, “Sivilizatsiyalar tashabbusi”ni BRIKS muloqot maydonida targ'ib etmoqda	AQShYevropa hukmron diskursiga raqobatdosh ko'p qutbli kun tartibini ilgari surish
Madaniy gumanitar	BRIKS o'yinlari, universitetlar ligasi, media va yosh diplomatlar forumlari tashkil etildi	“Xitoy tajribasi”ni yumshoq kuch orqali tarqatish

Strategik baho

1. Kuchli tomonlar

– Pekinning iqtisodiy hajmi va investitsiya salohiyati BRIKS doirasida tashabbuslarni moliyalashtirishga imkon beradi.

– BRIKS'ning konsensus asosida qaror qabul qilish mexanizmi Xitoyga “katta davlat” sifatida diktat qilish emas, balki ko'p tomonlama yetakchilikni namoyish etish yo'lini beradi.

2. Cheklov va xavflar

– Konsensus talabi Xitoyning tezkor geosiyosiy maqsadlarini sekinlashtiradi; Hindiston va Braziliya muvozanat omili bo'lib turibdi.

– BRIKS ichida dollardan voz kechish istiqbollari hali sust: Braziliya markaz banki ham 10 yillik ufqda dollarga real muqobil ko'rinmayotganini ochiq aytdi.

– Xitoyning eksportdan ortiqcha takliflari ba'zi hamkorlarda himoyaviy choralarni qo'zg'atmoqda, bu Pekinning “janubiy ittifoq” konsepsiyasiga soya solishi mumkin.

3. Kelajak tendensiyalari (2025–2027)

– **Raqamli to'lov tizimi:** Kazan deklaratsiyasida milliy valyutada hisobkitobni yengillashtiruvchi *BRIKS Pay* yoki o'zaro bog'langan tezkor to'lov tizimi ishga tushirilishi belgilandi. Pekin bu jarayonga raqamli yuanni ulashni ko'zlamoda.

– **NDB kapitalini oshirish:** yangi a'zolar va kuzatuvchi “hamkor davlatlar” bankka qo'shimcha poydevor kiritishi kutilmoqda (masalan, Kolumbiya \$512 mln ulush bilan ariza berdi).

– **Soha tarmoqlari bo'yicha hamkorlik:** kosmik ma'lumotlar konstellatsiyasi, chuqur suv resurslari markazi va “yashil o'tish” loyihalari Xitoy uchun texnologik standartlarni eksport qilish imkonini oshiradi.

BRIKS muloqot guruhi Xitoy tashabbusi ostida shakllanib, bugun Pekinga uch yo'nalishda foyda keltirmoqda:

1. **Geosiyosiy** – G'arbga nisbatan muqobil ko'p qutbli diskursga tayanch;

2. **Geo-iqtisodiy** – Eksport bozorlari, infratuzilma kreditlari va yuanning sekinasta internatsionallashuvi;

3. **Normativ** – Xalqaro kabi siyosiy-iqtisodiy institutlarda islohot talabini kuchaytirish.

Biroq BRIKS ichidagi xilmaxillik va konsensus mexanizmi Xitoyni ham muvozanatli, ham sabrli yetakchilik strategiyasiga majbur qiladi. Shu bois, 2025yildan keyingi davrda Xitoy uchun asosiy sinov – bu kengayib borayotgan BRIKSni ko'p qirrali manfaatlar ziddiyatiga qaramay bir yo'nalishda ushlab turish bo'ladi.

Xitoy XXI asrda o'zining iqtisodiy va texnologik salohiyatiga tayangan holda AQSh boshchiligidagi liberal xalqaro tartibga muqobil, ko'p qutbli (multipolyar) yondashuvni shakllantirishga kirishdi. BRIKS, ShHT, AIIB (Osiyo infratuzilma investitsiya banki) va “Bir kamar – bir yo'l” tashabbusi (BRI) orqali Pekin global boshqaruv institutsional arxitekturasini qayta shakllantirishga urinmoqda. Bu tashabbuslar Xitoyga g'arb nazoratidan chetda turgan davlatlarni jalb qilish imkonini beradi.

Xitoy “yumshoq kuch” (soft power) strategiyasini faollashtirib, o'ziga xos qadriyatlarga asoslangan model – “xitoycha modernizatsiya”ni ilgari surmoqda. Bu model rivojlanayotgan davlatlar uchun iqtisodiy o'sishni siyosiy pluralizm talablarisiz amalga oshirish mumkinligini namoyish etadi. Pekin BMT, WHO, va BRIKS

kabi maydonlarda “insoniyatning umumiy taqdiri hamjamiyati” g'oyasini targ'ib etmoqda.

XXI asr ikkinchi o'n yilligidan boshlab, Xitoy tashqi siyosatining muhim tarkibiy qismiga **sun'iy intellekt, 5G, raqamli valyuta (e-CNY), raqamli “Ipak yo'li”** kabi texnologik tashabbuslar qo'shildi. Huawei, TikTok va boshqa kompaniyalar orqali Xitoy “iqtisodiy diplomatiya”ni “raqamli diplomatiya” bilan sintez qilmoqda. Bu model Xitoyga texnologik platformalar orqali global normativ standartlar ustidan nazorat o'rnatishga harakat qilish imkonini beradi.

Xitoy tashqi siyosatining mintaqaviy vektorlari: Janubi-Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi

• **Janubi-Sharqiy Osiyo:** ASEAN davlatlari bilan iqtisodiy integratsiya, Dengizdagi mojarolarda harbiy vositalarning ko'payishi.

• **Markaziy Osiyo:** “BRI” va ShHT doirasida infratuzilmaviy va xavfsizlik hamkorligi.

• **Afrika:** Xom ashyo, infrastruktura kreditlari va “neokolonializm” da'volariga qarshi “hamkorlik asosida taraqqiyot” diskursi.

• **Lotin Amerikasi:** AQSh ta'sir doirasida turgan mamlakatlarda iqtisodiy penetratsiya orqali geosiyosiy muvozanat yaratish.

Xitoy o'zining global strategiyasida qarama-qarshi ikki yondashuvni uyg'unlashtiradi:

• Bir tomondan, “Belt and Road” va BRIKS orqali yangi ta'sir doiralari yaratish,

• Ikkinchi tomondan, AQSh va NATO bilan to'g'ridan-to'g'ri konfrontatsiyadan qochish.

Bu yondashuv “Xitoy tinch ko'tarilmoqda” degan tashqi siyosiy mantrani mustahkamlab, Pekinga xalqaro maqom uchun kurashda “mas'uliyatli kuch” imidjini saqlash imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XXI asr Xitoy tashqi siyosatining sifat jihatidan yangi bosqichga o'tgan davri bo'ldi. An'anaviy “himoyaviy-realistik” yondashuvdan “hujumkor-institutsionalist” modelga o'tish orqali Xitoy xalqaro munosabatlarda nafaqat o'z pozitsiyasini mustahkamladi, balki global tartibni qayta shakllantirishga qaratilgan strategik harakatlarni boshladi.

Birinchidan, Xitoy ilgari xalqaro institutlarda passiv ishtirokchi sifatida ko'rilgan bo'lsa, bugungi kunda u faol tashabbuskor, ba'zan esa institutsional

yetakchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, "Bir kamar — bir yo'l" tashabbusi, BRIKS doirasidagi ko'p tomonlama siyosiy-iqtisodiy hamkorlik — bularning barchasi Pekinning yangi tashqi siyosat paradigmasiga misoldir.

Ikkinchidan, Xitoy g'arb liberalizmidan farqli tarzda, o'zining normativ modelini ilgari surmoqda. Bu modelda siyosiy barqarorlik, davlat suvereniteti va iqtisodiy o'sish asosiy qadriyatlar sifatida talqin qilinadi. Shu orqali Pekin xalqaro maydonda demokratik liberalizmdan tashqari yo'l ham mavjudligini amalda namoyon qilmoqda.

Uchinchidan, Xitoy texnologik va geoiqtisodiy mustaqillikni ta'minlash maqsadida raqobatbardosh ekotizimlar qurmoqda. "Made in China 2025", "Digital Silk Road", 5G, AI va yashil texnologiyalar sohasidagi ilg'orliklar mamlakatning global yetakchilikka intilishini texnologik zamin bilan ta'minlayapti.

To'rtinchidan, Xitoy o'z tashqi siyosatini xavfsizlik, barqarorlik va mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish bilan uyg'unlashtirib, mintaqaviy va global ittifoqlarda markaziy o'ringa chiqmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika va Yaqin Sharqda Pekinning siyosiy-iqtisodiy ta'siri sezilarli darajada ortmoqda.

Shu asosda aytish mumkinki, Xitoy bugungi kunda yagona davlatdirki, u G'arbiy dominatsiyadagi global tartibga izchil va alternativ yo'nalishda muqobil model shakllantirishga harakat qilmoqda. Bu harakatlar global kuchlar muvozanatining o'zgarishiga, xalqaro institutlarning qayta formatlanishiga hamda yangi geosiyosiy realitetlarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Xitoyning bu boradagi harakatlari XXI asr xalqaro munosabatlarining mazmun va shakl jihatdan qayta ko'rilishida markaziy o'rinni egallashi ehtimoldan xoli emas. Shu bois, Xitoy tashqi siyosatining evolyutsiyasini kuzatish nafaqat geosiyosiy tahlilchilar, balki xalqaro huquq, iqtisodiyot va xavfsizlik sohasidagi mutaxassislar uchun ham dolzarb ilmiy yo'nalishga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Callahan, W. A. (2015). *China Dreams: 20 Visions of the Future*. Oxford University Press.
- Chin, G. (2016). *Asian Infrastructure Investment Bank: Governance Innovation and Prospects*. Global Policy.
- China expects stronger partnership for upcoming BRIKS Xiamen Summit, 30.08.2017. *People's Daily*
- Creemers, R. (2021). China's approach to cybersecurity and digital sovereignty. *MERICS Report*.
- <https://backend-live-coc.cfr.org/councilofcouncils/global-memos/BRIKS-summit-2024-expanding-alternative>
- https://www.idcpc.org.cn/english2023/bzhd/202307/t20230728_159844.html
- Hurley, J., Morris, S., & Portelance, G. (2019). Examining the Debt Implications of the Belt and Road Initiative from a Policy Perspective. *CGD Policy Paper*.
- Ikenberry, G. J. (2018). The end of liberal international order? *International Affairs*.
- Stuenkel, O. (2020). *Post-Western World: How Emerging Powers Are Remaking Global Order*. Polity.
- The BRIKS Summit 2024: An Expanding Alternative, 07.11.2024. backend-live-coc.cfr.org
- Westad, O. A. (2003). **Decisive Encounters: The Chinese Civil war*.
- Yan Xuetong (2006). The Rise of China in Chinese Eyes. *Journal of Contemporary China*.
- Zhao, S. (2010). The China Model: Can it replace the Western model of modernization? *Journal of Contemporary China*.